
TOSHLOQDA SUV TARMOG' I TORTISH ISHLARI AVJIDA

“Yuqoriqishloq” mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 947 ta xonadonda 5400 nafar aholi yashaydi. Bu yerda ham yangi suv tarmog' i tortish ishlari avjida. Barcha ishlar loyiha talablari asosida olib borilmoqda. Prezidentimizning "Mahallalarda birinchi navbatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g' risida" gi PQ-154-sonli qaroriga ko' ra, 4,4 mlrd. so' m evaziga 2 ta yangi quduq, 2 ta suv minorasi hamda 11 km suv tarmog' i tortilayapti.

Tez kunlarda mahallaga suvni tarmoq orqali uzatish boshlanib, mahalladagi 700 ga yaqin xonadon toza ichimlik suvi bilan ta' minlanadi.

2023-08-04 18:14:30